

## **ARXAIK VA ANTIK DAVRDA O'RTA OSIYODA KECHGAN SIYOSIY JARAYONLARDA OROLBO'YI KO'CHMANCHI QABILALARING HARBIY SALOHIYATI**

Urganch davlat universiteti  
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar fakulteti  
“Tarix” kafedrasи o'qituvchisi  
Botirova Nafosat Xurmatbek qizi  
[nafosatbotirova90@gmail.com](mailto:nafosatbotirova90@gmail.com)  
[nafosat.b@urdu.uz](mailto:nafosat.b@urdu.uz)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada arxaik va antik davrda Orolbo'yi hududlarida yashagan ko'chmanchi qabilalarning harbiy salohiyati, mudofaa jarayonlari, O'rta Osiyodagi ilk davlatlar, Eron-ahamoniylari, Aleksandr Makedonskiy, Salavkiylar, Yunon-Baktriya davlatlari bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, harbiy tayyorgarligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Orolbo'yi, Yevrosiyo, Marg'iyona, Xumbuztepa, yarim o'troq qabilalari, ikki taraflama keskir xanjarlar, kumush idishlar, podachi, xshatra.

### **KIRISH**

Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarining qadimgi va o'rta asrlar harbiy tarixi masalasi nafaqat O'rta Osiyo yoki umum Yevrosiyo doirasida, balki jahon miqyosida muhim ahamiyat kasb etuvchi mavzulardan biri hisoblanadi. Zero, o'z qo'shnilar bo'lmish o'troq – dehqonchilik dunyosidan yoki davlatlaridan harbiy ustunlikka ega bo'lgan ko'chmanchi qabilalar, qadimgi davrlarda ham, o'rta asrlarda ham O'rta Osiyoda kechgan siyosiy jarayonlarda juda katta ta'sirga ega bo'lganlar, hatto jahon miqyosida siyosiy jarayonlar yo'naliishlarini belgilovchi kuchga aylanganlar.

O'rta Osiyo xalqlarining arxaik yoki ilk temir davri deb nom olgan davrlar tarixida talaygina munozarali masalalar mavjud. Jumladan, ilk davlatchilik va ilk shaharsozlik jarayonlari mavzularida haligacha muammoli masalalar mavjud. Bunday muammoli masalalar jumlasiga yana mazkur davrlar o'troq dehqonchilik vohalari bilan ko'chmanchi – chorvador qabilalari o'rtasidagi munosabatlari qay darajada bo'lganligi masalasi ham kiradi. Eng avvalo bu munosabatlar qanday asoslarga qurilgan edi, ya'ni faqat iqtisodiy aloqalar ehtiyojidan kelib chiqib munosabatlar yo'lga qo'yilganmi yoki siyosiy – ijtimoiy munosabatlar talablari asosida yo'lga qo'yilganmi degan masalaga oydinlik kiritish lozim bo'ladi [1]. Bu

muammoni hal qilish asosida arxaik davrda O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati shakllanishi va rivojlanishi bosqichlari va uning omillari mavzusiga aniqlik kiritiladi. Zero, o'troq – dehqonchilik tamaddunlari sohiblari harbiy san'ati taraqqiyotida aynan shu qo'shni ko'chmanchi qabilalar bilan munosabatlar birinchi darajali omillardan hisoblanadi.

Asosan Orolbo'yi hududlarida yashagan va O'rta Osiyo hududidagi ilk davlatlar, eron – ahamoniylari, Aleksandr Makedonskiy, salavkiylar, yunon – Baqtriya, Xorazm, Qang' va Kushon davlatlari bilan siyosiy, ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy jihatdan uzviy bog'liq bo'lgan sak-massaget va dax qabilalari, O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'ati taraqqiyotida ham juda muhim o'rinn tutganlar.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, O'rta Osiyoda ilk davlatchilik shakllangan hududlar bo'lgan Baqtriya va Marg'iyona arxaik davr yodgorliklarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davrida qurol-yarog'lar juda oz miqdorda topilgan bo'lib, ko'chmanchi dasht madaniyatlariga xos jangchilarining qurol-yarog'lari bilan qo'shib ko'milgan qabrlari ham aniqlanmagan [1]. Ammo, bu holat o'z navbatida aholining tinch-totuv yashaganligidan dalolat beradi. Zero, Baqtriya, Marg'iyona va Sug'diyonadagi ko'pgina ilk temir davri yodgorliklari xom g'ishtdan qurilgan mudofaa devorlariga ega bo'lib, bu o'troq aholi manzillari ko'p hollarda tashqi hujumlardan himoyalanishlari lozimligini ko'rsatadi. Bu holat Xorazm va Farg'ona kabi hali shahar madaniyati endigina shakllanayotgan hududlarga ham xos bo'lib, ularning Orolbo'yi ko'chmanchilar bilan munosabatlari sovet davri tadqiqotlarida shakllangan, ko'chmanchilar bilan doimo urushlar, to'qnashuvlar bo'lib turganligi haqidagi qarashlar o'z isbotini topmagan. Jumladan, Xorazm vohasining eng qadimiy yodgorliklari Xumbuztepa va Hazorasp yodgorliklaridan palaxmon yadrolari topilgan bo'lsada, bu yodgorliklar xorasmiylarning vohaga ko'chib kelishlari davri kichik to'qnashuvlari izlari hisoblanadi [2].

Bu davrning eng muhim yodgorliklari jumlasiga Orolbo'yi yarim o'troq qabilalari yodgorliklari (ayniqsa qabrlar) kiradi. Bu yodgorliklardan topilgan turli buyumlar arxaik davrda Orolbo'yi ko'chmanchilar bilan o'troq vohalar ziroatkor aholisi o'rtasidagi munosabatlarning, jumladan harbiy munosabatlarning qaydarajada bo'lganligini yaqqol namoyon qiladi [3].

Miloddan avvalgi VI asr 30 – yillarida O'rta Osiyo xalqlari, shu jumladan, Orolbo'yi ko'chmanchi qabilalarininng bir qismi, Eron – ahamoniylari davlati tarkibiga kiritildi. Miloddan avvalgi VI-V asrlar voqealari ko'plab yozma

manbalarda o‘z aksini topgan bo‘lib, bu yozma manbalarda Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari, yetakchi harbiy kuch sifatida eslatiladi.

Umuman olganda, O‘rta Osiyoning o‘troq-ziroatkor aholisi harbiy san’ati taraqqiyotining arxaik davrini faqat qiyosiy tahlil orqali ochib berish mumkin. Buni arxeologik tadqiqotlar natijasida olingan moddiy ashyolar, topilgan ba’zi tasviriylar ham tasdiqlaydi. Jumladan, eng birlamchi manba bo‘lgan, Eron – ahamoniylari poytaxti Persepol xarobalari devoriy tasvirlarda O‘rta Osiyoning sak – massagetlar, so‘g‘diylar, baqtriylar va xorazmliklar tasvirlari o‘z aksini topgan bo‘lib, ularning tashqi ko‘rinishi deyarli bir – biridan farq qilmaganliklarini ko‘rish mumkin. Gerodotning ma’lumotlariga ko‘ra ham O‘rta Osiyo xalqlarining qurollanish darajasi va harbiy san’ati bir xil bo‘lgan. Hozirgi kunda ayniqsa, Persepol xarobalari devoriy tasvirlarini chuqur tahlil qilish asosida O‘rta Osiyo xalqlari harbiy tarixini yangicha asosda o‘rganishga tobora katta e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, ko‘proq qadimgi va ilk o‘rta asrlar O‘rta Osiyo xalqlari kiyim-kechaklarini o‘rganishga e’tibor qaratgan S.Yatsenko, Persepol devoriy suratlarini yozma manbalar ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilish asosida Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari bilan birga O‘rta Osiyoning ziroatchi-o‘troq aholisi harbiy tarixiga oid yangi ma’lumotlarni keltirib o‘tadi [4].

Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalarining O‘rta Osiyo xalqlari harbiy san’ati taraqqiyotidagi keyingi bosqich bu antik davrlar bo‘lib, miloddan avvalgi IV va milodiy III asrlarni o‘z ichiga oladi.

Bu davrda Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari O‘rta Osiyo o‘troq xalqlari va davlatlari bilan birga qadimgi Sharq va ulkan Yevroсиyo dashtlarida kechgan siyosiy jarayonlarga jalb qilinib, bu jarayonlarda juda katta o‘rin tutganlar.

Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari bilan bog‘liq ravishda Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari Sharq xalqlari, jumladan O‘rta Osiyo davlatlarida harbiy sohaning taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shdilarki, bu yozma manbalar ma’lumotlari va arxeologik tadqiqotlar natijalari orqali to‘liq tasdiqlangan.

Ellistik davlatlar harbiy soha taraqqiyotida ham Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari muhim o‘rin egallaganlar. Tarixdan ma’lumki, Yunon – Baqtriya davlati aynan ko‘chmanchi qabilalar hujumi natijasida inqirozga yuz tutgan edi. Arxeologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, antik davrning buyuk davlatlari Qang‘ va Kushon davlatlari harbiy soha taraqqiyotida to‘liq dasht-ko‘chmanchilarining harbiy qurollanishi va jang usullari hukmronlik qilgan edi.

Buni arxeologik tadqiqotlar natijalari ham yaqqol ko‘rsatadi. Jumladan, 1909 va 1985 yillarda Sibir hududlaridan topilgan kumush idishlarda tasvirlangan og‘ir qurollangan jangchilar tasvirlari haligacha bahs-munozaralar markazida bo‘lib

kelmoqda. Bu idishlarning O‘ra Osiyoda (tadqiqotchilar fikricha uchta hududda: So‘g‘d, Xorazm va Yettisuv) ishlab chiqarilganligi to‘liq isbotlangan bo‘lsada, ularda tasvirlangan og‘ir qurollangan otliq jangchilar tasvirlari Orolbo‘yi ko‘chmanchi qabilalari harbiy san’atiga xosligi ham olimlar ichida shubha uyg‘otmaydi [5]. Chunki, bu tasvirlar Qang‘ va Kushon davlatlariga xos bo‘lgan boshqa tasvirlarga juda o‘xshash bo‘lib, mazkur davlatlar esa ko‘chmanchi qabilalar tomonidan barpo qilinganligi ham juda yaxshi ma’lum.

O‘rta Osiyo xalqlari tarixi bo‘yicha eng qadimgi yozma manba “Avesto”da ham harbiy ish taraqqiyoti xususida ma’lumotlar uchraydi. Jumladan, uning Mixr-Yasht qismida Mitra xudosiga bag‘ishlangan madhiyada harbiy jasorat, o‘z so‘zi va qasamiga sodiq bo‘lgan jangchining tasvirlanishi, jangga saf tortgan holda kirilishi holatlari, jang jarayonlarini ko‘rsatuvchi jang oldidan har ikki taraf bahodirlarining yakkama-yakka jang qilganligi jamiyatda harbiy soha an’analarining shakllanib bo‘lganligini ko‘rsatadi. Asardagi qo‘sishin tuzilishi haqidagi ma’lumotlar, qo‘sinning qator-qator bo‘lib safga tizilgan holda jangga kirishi, qo‘sinning markaz hamda yon qanot qismlariga bo‘linish printsiplariga asoslanganligi muayyan jang taktikasi shakllanganligini ko‘rsatadi [6]. SHu bilan birga bu kitobda xudo Mitranning jang aravada tasvirlanishi qanday qo‘sishin turlari bu davrda mavjud bo‘lganligini yaqqol ifodalagani holda bir qancha jangavor qurol-yarog‘lar turlari ham eslatilib o‘tiladi. Jumladan, bronzadan yasalgan nayza, bronza o‘qlar, kiyik paylaridan bo‘lgan yoy, tosh otar palaxmon, ikki taraflama keskir xanjarlar, oyboltalar va hokazo [6].

Sovet davri tarixshunosligida harbiy san’at sohasining taraqqiyoti faqat bosqinchilik urushlarining rivojlanishi mavzusi bilan bog‘liq holda talqin qilingan. Bunday yondashuv, yana o‘zida sinfiylik tamoyillarini o‘zida aks ettirib, harbiy siyosiy omillarga asoslangan kasbiy boshqaruvning ajralib chiqishi masalasi XX asrning 90-yillari boshlariga qadar umumiylaza nazariya sifatida turli hududlar aholisining qadimgi tarixini o‘rganishda ustunlik qilib kelgan [7]. Adabiyotlarda doimiy harbiy to‘qnashuvlar sharoitida, urushlar jangchilar va harbiy yo‘lboshchilarning kasb-hunariga yoki doimiy kasbiy faoliyatiga aylangan degan xulosa o‘z aksini topgan [8].

Tadqiqotchilar “Avesto”da “ijtimoiy-kasbiy” guruh sifatida jangchi – harbiylar tabaqasi ko‘p bora tilga olinganligini alohida ta’kidlaganlar [9]. SHu bilan birga, manbada qabilalar o‘rtasidagi tinimsiz bosqinlar va talon-tarojlar to‘g‘risida ma’lumotlar mavjudligi, jangchi va harbiy-yo‘lboshchilarning nufuzi yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi [9].

A.S. Sagdullaev fikriga ko‘ra, harbiy-siyosiy funktsiyalar tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish, harbiy qurollarni ishlab chiqarish, qurollangan qo‘sishlarni tashkil etish, makon va tumanlar hududida mudofaa ishlarini amalga oshirish, tuman va viloyatlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish, munozarali masalalarni hal qilish kabi vazifalar asosida rivoj topgan.

## NATIJALAR

Mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyo viloyatlari ahamoniylar hukmronligi ostiga tushib qolgan. Erondagi Ahamoniylar davlatiga mil. avv. 558 yilda podsho Kir II asos solgan (forscha Kurush – “podachi” deb tarjima qilinadi). Kir II Eronning “Parsua” (Fors) viloyatining podshosi bo‘lib, Midiya davlati podshosi Astiagga qarshi urush boshlagan. Bu kurashda Astiag yengilgan.

Bundan keyin, Kir II qadimgi SHarqdagi barcha mamlakatlar ustidan hokimiyatini o‘rnatishni rejalahtirgan. Tarixan qisqa muddat ichida, mil. avv. 547–546 yillar davomida, Kir II Kichik Osiyo davlatlarini istilo qildi. Gerodotning xabarlariga ko‘ra, Kir II ning harbiy yurishlariga «Bobil, Baqtriya xalqi saklar va misrliklar to‘siq bo‘lib turganlar».

Kichik va Old Osiyoda o‘z hokimiyatini o‘rnatish uchun iqtisodiy boyliklar va harbiy kuchlar zarur bo‘lgan. Qurol kuchi bilan yangi mamlakatlarni va turli xalqlarni bo‘ysundirish Kir uchun asosiy maqsadga aylangan.

Kir II O‘rta Osiyoni qay tarzda bosib olganligi haqida aniq ma’lumotlar saqlanmagan. Ayrim qisqa ma’lumotlar Ktesiyning «Persika» asarida bor. Qadimgi yunon tarixchisi aytishicha: «Kir va baqtriyaliklar urushida hech qaysi tomon vakillari g‘alaba qozonmagan». Biroq, baqtriyaliklar, ahamoniylar davlatining harbiy qudrati Sharqda ustunlik qilganidan xabardor bo‘lib, Kir II ga ixtiyoriy bo‘ysunadilar. Kir II va Baqtriya urushlari haqida Ksenofont ham o‘zining «Kiropediya» asarida qisqa ma’lumot bergen.

Gerodot, Kir II ning istilochilik rejalarini tilga olganda, podshoning Baqtriyani istilo qilish maqsadi Bobildan keyin ikkinchi o‘rinda turganligi haqida xabar beradi. Kir II Bobilni mil. avv. 539 yilda o‘ziga bo‘ysundirgan. Demak, 539 yildan keyin Kir II Baqtriyaga hujum qilishi kerak edi. Ammo Kir II O‘rta Osiyo viloyatlarining iqtisodiy boyliklari va harbiy kuchlariga aniq darajada baho berib, mil. avv. 545–540 yillar davomida O‘rta Osiyoning janubiy qismiga harbiy diqqatini qaratgan. SHuning uchun Gerodotning ma’lumotlari tarixiy jihatdan birmuncha noto‘g‘ri deb hisoblanadi [10].

Bobil podsholigi va Misr o'sha zamonning qudratli davlatlari bo'lib, ularni istilo qilish uchun maxsus harbiy tayyorgarlik ko'rish kerak edi. Misrga qarshi yurishdan Kir II voz kechgan va mazkur davlatni uning o'g'li (Kambiz) istilo qilgan.

Eronning shimoli-sharqi va O'rta Osiyodagi siyosiy ahvolining o'zgarishi tufayli Kir II Bobilni zabt etish imkoniyatidan ham mahrum bo'lgan. O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalari tomonidan ahamoniylar davlatiga qarshi hujum uyuştirish xavfi paydo bo'lib, saklarga qarshi qadimgi fors davlati chegaralaridagi mustahkam qal'alaridan o'z vaqtida fors qo'shnirlari tomonidan foydalanish rejallashtirilgan. SHuning uchun ham Bobildan oldin, Kir II Parfiya, Ariya, Marg'iyona, Baqtriya va Sug'diyonani o'ziga bo'ysundirgan. Sirdaryoga yaqin, hozirgi O'ratepa atrofida, Kir II yangi mustahkam qal'aga asos solgan deb faraz qilinadi. Bu Kurushkat (Kir shahri) nomli qudratli qal'a ko'chmanchilarga qarshi istehkom sifatida qurilgan. Kurushkatni (yunoncha Kiropolis) Makedoniyalik Aleksandr mil. avv. 329 yilda vayron qilgan [11].

Mil. avv. 530 yilga kelib, ahamoniylar Hind vodiysidan O'rtaer dengizigacha bo'lgan hududda o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lsa-da, O'rta Osiyodagi ko'chmanchi qabilalar mustaqil bo'lib yashagan. Mil.avv. 530 yilning avgust oyida Kir II massagetlarga qarshi yurish qilgan. Bu harbiy yurish haqidaga qadimgi davr mualliflari – Gerodot va Trog-Yustin ma'lumotlari saqlangan bo'lib, ular bu tarixiy voqealarni turlicha tasvirlaganlar.

Geografik jihatdan Kir II ning massagetlarga qarshi yurishi yo'nalishini o'rganish muammosi juda ham murakkabdir. O'rta Osiyo ko'chmanchilari Kaspiy dengizi bilan Sirdaryo o'rtasidagi keng o'lkada joylashganlar. Kir II ning qo'shnirlari Parfiya chegaralaridano'tib, Amudaryo –O'zboy bo'yalaridayashovchi massaget qabilalarining yurtiga kirib borganlar.

Gerodotning xabarlariga ko'ra, To'maris boshchiligidagi massagetlar fors qo'shnilarini butunlay mag'lubiyatga uchratib, barchasini yo'q qilganlar. Gerodot asarida aytilishicha, massagetlar yo'lboshchisi To'maris, urush maydonidan Kirning jasadini topib kelishni buyurgan va uning boshini kesib, qon bilan to'lg'azilgan meshga slogan [12].

Kir II vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Kambiz o'tirdi. Uning hukmronlik davri, ya'ni mil. avv. 530–522 yillar O'rta Osiyo xalqlari siyosiy tarixi haqida yozma manbalarda hech qanday ma'lumotlar yo'q. Kambiz Misrni istilo qilgan qadimgi fors podshosidir. Kambiz vafotidan so'ng mamlakatda katta qo'zg'onlalar boshlangan. Bu haqida Doro I (mil.avv.522–486 yillar) Bexistun yozuvida shunday xabar qiladi: «Elam, Midiya, Ossuriya, Misr, Parfiya, Marg'iyona, Satgagadiya,

Saklar mendan ajralib chiqib ketdilar». Ahamoniylarga qarshi, ayniqsa xalqning katta qo‘zg‘oloni Marg‘iyonada alanga olgan.

Doro I birlashgan davlatni qaytadan tiklaydi. Kir II davridan dunyoning barcha mamlakatlari ustidan hukmronlik o‘rnatishga intilgan ahamoniylar yillar mobaynida juda yirik davlatga asos solganlar. Doro I o‘zidan oldin o‘tgan podsholar siyosatini davom ettirtan. Doro I qabriga qo‘yilgan qabrtoshdagi bitiklarda: «Sen Eron jangchisining nayzasi uzoq–uzoq mamlakatlargacha borib yetganini bilib olasan» deb yozilgan [12].

Qadimga forslarning O‘rta Osiyo shimoliga yurishlari shafqatsiz yakunlanganligi va Kirning massagetlar qabilalari bilan qattiq jang paytida xaloq bo‘lganligi Doro I ning tashqi siyosatida inobatga olinib, mil. avv. 519 (518) yilda Doro I saklar (saka–tigraxauda)ga qarshi maxsus yurish qilgan.

Doro I xabar qiladi: «Saklarga qarshi men Sak yurtiga bostirib bordim, ularning o‘zлari cho‘qqiqlapoq kiyib yuradilar. Men daryoga yetib keldim, daryo kemalaridan ko‘prik qilib, saklar yur–tiga hujum qildim. Ularning sardori – Skunxa ismli odamni tutib, mening huzurimga keltirdilar. Men o‘z xohishim bilan saklar yurtiga yangi boshliq tayin qildim. SHundan so‘ng mamlakat mening qo‘l ostimga o‘tdi».

Doro I sak qabilalari ustidan g‘alabaga erishgan bo‘lsa ham, O‘rta Osiyo xalqlari ahamoniylarga qarshi ozodlik kurashlarini davom ettirganlar. Qadimgi dunyo tarixi muallifi Polien, o‘zigacha yetib kelgan hikoyalarga asoslanib, jasur SHiroq tarixi orqali saklarning ahamoniylarga qarshi qahramonona kurashini hikoya qiladi. SHiroq o‘z jonidan kechib, qadimgi fors qo‘shinlarini suvsiz cho‘l va sahroning ichkarisiga olib kirib, saklarning makonlarini dushman hujumidan saqlab qoldi, bundan o‘zi ham halok bo‘ldi [16].

O‘rta Osiyoning bo‘ysundirilgan hududlari va umuman, zabit etilgan qadimgi SHarq viloyatlari Doro I davrida alohida ma’muriy o‘lkalarga birlashtirilgan. Bu ma’muriy–harbiy o‘lkalarni idora qilgan hokimlarni qadimgi forslar «xshatrapavan», yunonlar esa «satrap» deb ataganlar (qadimgi fors tilidagi “xshatra” – “viloyat” atamasidan “satrapiya”, “satrapiklar” tushunchasi kelib chiqqan).

Behistun yozuvlari, Gerodot va Ktesiy ma’lumotlari asosida, olimlar Baqtriya satraplari ro‘yxatini aniqlaganlar. Mil.avv. 530–522 yillarda Baqtriya satrapi vazifasini Kir IIning o‘g‘li Smerdis (Bardiya) bajargan (Qambiz podshoning ukasi), 522– 486 y. Dadarshish, 486–480 va 480–465 y. Ariamen bilan Masist – Doro I o‘g‘illari, 465–423 y. Artabon Gistasp, mil.avv.335 yilgacha ma’lumotlar yo‘q, 335–329 yillarda Bess – Baqtriyaning oxirgi satrapi bo‘lgan.

Gerodotning aytishicha, Doro I davlatni 20 ta o'lka-satrapiyalarga bo'lgan. Behistun, Naqshi Rustam va Suza yozuvlarida fors podsholigi 24 satraplikka ajratilib ko'rsatilgan. Behistun yozuvlari ro'yxatida Baqtriya-16, Sug'diyona-17 o'rinda ko'rsatilgan. Gerodotning ma'lumotlariga ko'ra, Baqtriya-12, saklar-15, Parfiya, So'g'd va Xorazm-16 ma'muriyo'lka bo'lgan. Gerodotning «Tarix» asarida satrapliklarning podshoga to'laydigan soliqlar miqdori keltirilgan [17].

Doro I ning vafotidan so'ng uning o'g'li Kserks taxtga o'tirgan (mil.avv.486 yil). Kserksning tashqi harbiy siyosatida Eronni qurol kuchi bilan eng qudratli davlatga aylantirish jarayoni davom etadi. Kserks qadimgi Yunoniston va Yevropa mamlakatlari ustidan hukmronlik o'rnatish o'z oldiga muhim maqsad qilib qo'yan. O'rta Osiyo xalqlari – baqtriyaliklar, xorazmliklar, sug'diyalar va saklar Kserks qo'shinlari tarkibida yunon – fors urushlarida ishtirok etganlar.

Marafon jangida saklarning otliqko'shinlari nihoyat katta jasurlik ko'rsatib, yunonlarning jangovar markaziy qismini chekinishga majbur qilganlar. Baqtriya va saklarning chavandozlari ahamoniylar qo'shinlaridagi eng jasur qismlaridan biri bo'lib hisoblangan. Yunon–fors urushlari davrida O'rta Osiyo xalqlarining harbiy qudrati katta ahamiyatga ega bo'lgan [18].

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. Ўзбекистонда ҳарбий иш тарихидан (қадимги даврдан ҳозиргача) / Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси; масъул мухаррир: Д.Х. Зияева. - Т.: Шарқ, 2012. - Б.7.
2. Итина М.А., Яблонский Л.Т. Саки Нижней Сырдарьи (по материалам могильника Южный Тагисен).// М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН). 1997. – 187 с.; Яблонский Л.Т. Саки Южного Приаралья: (Археология и антропология могильников) / Л. Т. Яблонский; Рос. акад. наук, Ин-т археологии. - Москва : ИА : Информ.-изд. центр "ТИМР", 1996. - 184,[1] с.; Баратов С.Р. Истоки урбанизированной культуры низовий Амудары // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент-Урганч, "Navro'z", 2019. – С. 18-19.
3. Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры // ТХАЭЭ. Т. XI. – М., 1979. – С. 7–76; O'sha muallif: Скотоводческие племена в древнем Хорезме // Культура и искусство древнего Хорезма. – М., 1981. – С. 121–130; O'sha muallif: Изучение памятников Присарыкамышской дельты Амудары в 70–80-е годы // Скотоводы и земледельцы левобережного Хорезма (древность и средневековье). Ч. I. – М., 1991. – С. 67–98; O'sha muallif: Этногеография Турана в древности. VII в. до н.э. – VIII в. н.э. – М.: Наука, 1999; Болелов С.Б.

4. Крепость Аяз-кала 3 в правобережном Хорезме // Приаралье в древности и средневековье. — М.: ИВЛ РАН, 1998. – С. 116-134; Бижанов Е., Ходжаниязов Г.К. Археологический комплекс Бутентау //Археология Приаралья.– Нукус, 2003. Вып.VI. – С. 33-36;
5. Беттс А.В., Ягодин В.Н. Раскопки Ташхирмантепе // Археологические исследования в Узбекистане в 2001 г. – Самарканд, 2002;
6. Болелов С.Б. К вопросу о южных и юго-западных связях Хорезма во второй половине I тыс. до н.э. по археологическим данным (древнехорезмийский археологический комплекс) // Центральная Азия. Источники. История. Культура. – М., 2005. – С. 215–234; O'sha muallif: Хорезмийское государство // История государственности Узбекистана. Т. I. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С. 193–210;
7. Матякубов X. Хоразм воҳаси бронза ва илқ темир даври тарихи (маданият, ижтимоий – иқтисодий ва сиёсий муносабатлар муаммолари: Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Т.: ЎзМУ, 2018. –26 б.;
8. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илқ давлатчилик тарихи. Тарих фан. докт. (DSc) дисс. ... автореф. – Тошкент: Тошкент кимё технология институти, 2019. – 54 б.
9. Яценко С.А. Враги из Средней Азии в искусстве империи Ахеменидов / Вопросы археологии Казахстана. Сборник научных статей. Том Выпуск 3. Ответственный редактор: А.З. Бейсенов. Алматы: ТОО "Научно-исследовательский центр истории и археологии Бегазы-Тасмола", 2011. – С. 495-510.
10. Толстов С.П. Древний Хорезм: Опыт историко-археологического исследования. – М.: Изд – во МГУ, 1948. - С. 211-227;
11. Даркевич В. П. Художественный металл Востока. Произведения восточной торевтики на территории европейской части СССР и Зауралья – М.; Л.: Наука, 1976. – 198 с.;
12. Гемуев И. Н. Еще одно серебряное блюдо из Северного Приобья // Изв. СО АН СССР, сер. истории, филологии и философии. – Новосибирск, 1988. – № 3. – Вып. 1. – С. 39—48;
13. Бауло А. В. Связь времен и культур (серебряное блюдо из Верхне–Нильдина) // Археология, этнография и антропология Евразии. – 2004. – № 3. – С. 127—136.
14. Авеста. Избранные гимны / Пер. с авестийского И. Стеблина-Каменского. – М.: ГРВЛ, 1993. – С. 76 -116.

15. Косвен М.О. К вопросу о военной демократии // Труды института этнографии АН СССР, 1960. Т. 4. – С. 241-261.
16. Хазанов А.М. Разложение первобытнообщинного строя и возникновение классового общества // Первобытное общество. – М.: Наука, 1975. – С. 123.
17. Дьяконов И.М. История Мидии ... – С. 154; Грантовский Э.А. Индоиранские касты у скифов // XXV Международный конгресс востоковедов. – М., 1960. – С .3.
18. Балахванцев, А.С. Массагеты Геродота и саки тиграхауда ахеменидских надписей: соотношение и локализация // Древности Восточной Европы, Центральной Азии и Южной Сибири в контексте связей и взаимодействий в евразийском культурном пространстве (новые данные и концепции): Материалы международной научной конференции. Т. I. Древняя Центральная Азия в контексте евразийского культурного пространства (новые данные и концепции). СПб.: ИИМК РАН, 2019. С. 260–262.
19. Заднепровский Ю.А. Взаимодействие кочевников и древних цивилизаций и этническая история Средней Азии // Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций / Материалы советско-французского симпозиума. Алма-Ата, октябрь, 1987 г. Отв. ред. В.М. Массон. – Алма-Ата: Наука, 1989. – С. 257-265.
20. Дандаев М.А. Политическая история Ахеменидской державы. – М.: Главная редакция восточной литературы издательства «Наука», 1985. – С.53-55.
21. Абдалов, У. М. (2014). The Water Diety's Symbols in Spirituality of People of Khorezm. Молодой ученый, (1), 275-276.
22. Matniyazovich, A. U. (2022). REFLECTION OF GLASSMAKING IN KHOREZM HANDICRAFTS IN ARCHEOLOGICAL RESEARCHES. O'ZBEKİSTON OLIMLARINING İLMIY-AMALIY TADQIQOTLARI, (1), 28-32.
23. Абдалов, У. М. (2017). After independence, in the Khorezm region of the material and spiritual health: food and tourist routes. Молодой ученый, (4), 612-613.
24. Итина, М. А. История степных племен Южного Приаралья / М. А. Итина // ТХАЭЭ. - М.: Наука, 1977. - Т. IX. - 240 с.
25. Геродот. III. - С.90-94.
26. Геродот. IX. 2.15.стр.43.